
“Ma’naviyat yengilmas kuch” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi

Bugun Qo’shtepa tumanidagi 1-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotida “Ma’naviyat yengilmas kuch” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda insoniylik, bag‘rikenglik va vatanparvarlik hissini shakllantirish borasida qanday amaliy ishlar olib borilganligi tadbir ishtirokchilariga badiiy chiqishlar orqali ko‘rsatib o‘tildi.

O‘tkazilgan tadbirda tuman hokimining maslahatchisi M.Mo‘ydinova, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari D.Xoliqov hamda tashkilotdagi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar.

Tadbir yakunida muassasadagi jonkuyar tarbiyachi xodimlar hamda faol bolajonlar tashkilotchilarning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

2024-12-17 14:22:15